



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING QARORI

“Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, yoshlarning salohiyati, iste’dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 16-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmonining 12-bandiga asosan 2024/2025-o‘quv yildan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 1 tadan tumani (shahri)da sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 1-ilovaga;

2024/2025 o‘quv yilda umumta’lim maktablarida sinov tarzida “Mening maktabim” loyihasi amalga oshirilishi belgilangan tuman (shahar)lar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Mening maktabim” loyihasining joriy yilgi mavsumi **dekabr oyida** o‘tkazilsin.

4. Belgilansinki, “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi **vaqtinchalik nizom** doimiy nizom tasdiqlangunga qadar amal qiladi.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi:

2025/2026-o‘quv yildan boshlab barcha umumta’lim maktablarida “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish maqsadida tuman (shahar)

maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining 2025-yil uchun xarajatlar smetasida bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablag' ajratilishini ta'minlasin;

ushbu mablag' "Mening maktabim" loyihasi doirasida 5–11-sinf o'quvchilari tanloviga ko'ra elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktab uchun zarur tovarlarga sarflanishini nazoratga olsin;

"eMaktab" platformasida maktab o'quvchilarining ma'lumotlari (shu jumladan, o'quvchilarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning telefon raqamlari) to'g'ri shakllantirilishi hamda doimiy yangilab borilishini ta'minlasin.

6. Iqtisodiyot va moliya vazirligi **o'n kun muddatda** "Ochiq budget" axborot portalida "Mening maktabim" loyihasi amalga oshirilishini ta'minlovchi maxsus bo'limni ishga tushirsin.

7. "Mening maktabim" loyihasi sifatli o'tkazilishi uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi mas'ul etib belgilansin.

8. Mazkur Qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi E. Gadoyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining Raisi**

Toshkent shahri,
2024-yil 5-dekabr,
KQ-10-V-sonli.



T. Narbayeva

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Kengashining
2024-yil 5-dekabrdagi
KQ-10-V-sonli Qaroriga
1-ilova

“Mening mifikatim” loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida VAQTINCHALIK NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mening mifikatim” loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom (keyingi o‘rinlarda – nizom) “Mening mifikatim” loyihasini o‘tkazish, shuningdek, “Ochiq budget” portalı orqali **davlat umumta’lim maktablari o‘quvchilarining** fikri asosida loyihalarni shakllantirish, ularni moliyalashtirish hamda amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

“Mening mifikatim” loyihasi – “Ochiq budget” axborot portalida (keyingi o‘rinlarda – Portal) mifikat o‘quvchilar fikri asosida **loyihalarni** shakllantirish, ularni saralash, **ovoz berish yo‘li orqali g‘olib loyihalarni aniqlash** hamda ularni **budget mablag‘lari** hisobidan moliyalashtirish va amalga oshirishni o‘z ichiga olgan jarayon;

mifikat o‘quvchilar fikri asosida shakllangan loyiha taklifi (keyingi o‘rinlarda – loyiha) 5–11-sinf o‘quvchilar tomonidan o‘zlari ta’lim olayotgan umumta’lim mifikatini jihozlash (elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi mifikat uchun zarur tovarlar sotib olish) yoki qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirishga doir tadbirlar;

g‘olib loyiha – ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra to‘plangan ovozlar soni asosida **Portal tomonidan** avtomatik tarzda tanlab olingan loyiha;

“Mening mifikatim” jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – jamg‘arma) – tuman (shahar) mifikatgacha va mifikat ta’limi bo‘limlari qoshida har bir mifikat uchun alohida budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari shaklida tashkil etiladigan hamda g‘aznachilikda ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga ega bo‘lgan (yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan) jamg‘arma;

“loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi” bo‘limi – Portalning g‘olib deb topilgan loyihalarni **moliyalashtirishning** barcha bosqichlarini onlayn kuzatib borish imkoniyatini beruvchi maxsus bo‘limi;

“kalit so‘z” – har bir o‘quvchi uchun Portaldan foydalanish imkoniyatini beruvchi parol vazifasini bajaruvchi maxsus so‘z.

3. “Mening mifikatim” loyihasini o‘tkazish ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

“Mening matabim” loyihasini tashkil etish, o‘tkazish hamda tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Maktabgacha va matab ta’limi vazirligi **vakolatli organlar** hisoblanadi.

4. Loyihalarni saralab olish tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya hamda matabgacha va matab ta’limi bo‘limlari qo‘shma buyrug‘i bilan ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy tarkibda tuziladigan Loyihalarni saralab olish bo‘yicha ishchi komissiya (keyingi o‘rinlarda – Ishchi komissiya) tomonidan amalga oshiriladi.

5. “Mening matabim” loyihasida matabning 5–11-sinf o‘quvchilar ishtirok eta oladilar. Bunda o‘quvchilar faqat o‘zлari ta’lim olayotgan matab uchun loyiha kiritish yoki ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2-bob. “Mening matabim” loyihasini moliyalashtirish

6. “Mening matabim” loyihasi jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

7. Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:
har yili tegishli tuman (shahar) budgetida “Mening matabim” loyihasi uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik mablag‘lari, xalqaro moliya institatlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

8. Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida belgilangan tartibda mahalliy darajada ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlanadi va ushbu Nizomda belgilangan maqsadlarga sarflanadi.

9. “Mening matabim” loyihasini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lar tuman (shahar) matabgacha va matab ta’limi bo‘limlari xarajatlar smetasida nazarda tutiladi hamda jarayonlar boshlanishidan kamida bir oy avval har bir matab uchun ochilgan Jamg‘armalarga o‘tkazib beriladi.

10. Jamg‘arma mablag‘lari faqat “Mening matabim” loyihasi doirasida g‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi. Mazkur mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflash taqiqlaqadi.

11. G‘olib loyiha mazmunida nazarda tutilgan tadbirlar **to‘liq amalga oshirilgandan** so‘ng ushbu loyiha uchun ochilgan hisobraqamdagи qoldiq mablag‘lar **iqtisod qilingan mablag‘** hisoblanadi.

Iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘srimcha tadbirlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi hamda ular kelgusi yil o‘tkaziladigan “Mening matabim” loyihasi jarayoniga yo‘naltiriladi.

3-bob. Matab o‘quvchilar fikri asosida loyihalarni shakllantirish, saralab olish va g‘oliblarni aniqlash

12. “Mening matabim” loyihasi har yili **oktabr-noyabr** oylarida o‘tkaziladi.

Zarur hollarda vakolatli organlar **keng jamoatchilikni xabardor qilgan holda** “Mening matabim” loyihasini o‘tkazish muddatlariga aniqlik kiritishi mumkin.

13. “Mening matabim” loyihasi jarayonlari Portal (openbudget.uz) orqali o‘tkaziladi. Bunda Portalning veb sahifasi va mobil ilovasi teng kuchli hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘quvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida Portalning imkoniyatlari “web3” texnologiyasi orqali Ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etilishi mumkin.

14. Vakolatli organlar “Mening matabim” loyihasini o‘tkazish jarayoni boshlanishidan **kamida yigirma kun avval rasmiy veb-sayt** va ommaviy axborot vositalari orqali:

“Mening matabim” loyihasini o‘tkazish muddatlari;
yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori;
maktablar uchun loyihalardan namunalarni e’lon qiladi.

15. “Mening matabim” loyihasi quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:
sinf rahbarlarini loyihaга tayyorlash;
o‘quvchilar tomonidan **loyihalarni shakllantirish;**
ishchi komissiya tomonidan loyihalarni **saralab olish;**
saralashdan o‘tgan loyihalarga **ovoz berish;**
g‘olib loyihalarni aniqlash va **amalga oshirish;**
tugallangan loyihalarni jamoatchilik nazorati asosida **foydalananishga qabul qilish.**

16. Har yili “Mening matabim” loyihasi o‘tkazilishidan avval vakolatli organlar tomonidan **loyihalar namunasi** ishlab chiqiladi.

Loyihalar namunasi maktablarda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan turli yo‘nalishlardagi loyihalardan tashkil topib, o‘quvchilar uchun sodda va tushunarli hamda tayyor ko‘rinishda shakllantiriladi.

Bunda har yili joriy narxlardan kelib chiqib loyihalarning **amalga oshirish qiymatiga** vakolatli organlar tomonidan aniqlik kiritib boriladi.

17. Sinf rahbarlari o‘zining sinf soatlarida o‘quvchilarga “Mening matabim” loyihasining mazmun-mohiyatini hamda ishtirok etish shartlari va qoidalarini tushuntiradi. Shuningdek, o‘quvchilarga loyihalarni Portalga kiritishda amaliy yordam ko‘rsatadi.

Bunda loyihalarni shakllantirish uchun o‘quvchilar o‘rtasida turli xil qiziqarli tadbirlar tashkil etgan holda ularni guruh bo‘lib ishslash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

18. Har yili o‘tkaziladigan jarayonda har bir o‘quvchi o‘zi ta’lim olayotgan matabi uchun **faqat bitta loyiha** ilgari surish imkoniga ega bo‘ladi.

19. O‘quvchilar loyihalarini sinf rahbarlari ko‘magida o‘zining telefon, planshet qurilmalari yoki matabdagagi mavjud kompyuter va noutbuklardan foydalangan holda kiritadi.

O‘quvchilarga qulaylik yaratish maqsadida matab rahbariyati tomonidan loyihalarni shakllantirish va Portalga kiritish uchun internet

aloqasi mavjud kompyuterlar bilan jihozlangan informatika xonasidan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

20. O‘quvchilar loyihalarni Portaldagi “Mening maktabim” bo‘limi orqali kiritadi.

Portaldan foydalanish uchun har bir o‘quvchiga avtomatik tarzda Portalda “kalit so‘zlar” shakllantiriladi. Kalit so‘zlar o‘quvchilar ota-onalarining “eMaktab” portali orqali ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqamlariga SMS xabar orqali yuboriladi.

Sinf rahbarlari har bir o‘quvchiga o‘zining maxsus “**kalit so‘z”larini** maxfiy tutishi hamda uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi haqida tushintirish berishlari kerak.

21. O‘quvchilar **quyidagi usullardan** foydalangan holda o‘z loyihalarini ilgari surishlari mumkin:

avtomatik tarzda – **loyiha namunaları** orasidan o‘ziga yoqqan loyihani tanlash orqali;

mustaqil ravishda – taqdim etilgan loyiha namunaları orasida mavjud bo‘limgan loyihalarni yangidan shakllantirish orqali.

Loyihalar mustaqil ravishda shakllantirilgan taqdirda o‘quvchi tomonidan loyihaning mazmuni, loyihadan erishiladigan natija hamda uning dastlabki qiymati ko‘rsatilishi lozim.

22. Ishchi komissiya mustaqil shakllantirilgan barcha loyihalarni quyidagi mezonlarga muvofiqligini ko‘rib chiqadi:

loyiha qiymatining chegaraviy miqdordan ortib ketmaganligi hamda uning to‘g‘ri baholanganligi;

xarid qilinadigan tovar yoki jihozlar faqat ushbu **maktab ehtiyoji uchun** foydalanishi nazarda tutilganligi;

maktabni saqlash xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lmasligi (kommunal xarajatlar, telefon va internet oylik to‘lovleri va boshqalar);

o‘qituvchilar yoki maktab **ma’muriyatining shaxsiy ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi** tovar va jihozlarni xarid qilish nazarda tutilmaganligi;

o‘quvchilar orasida **o‘zaro konflikt keltirib chiqarmasligi** (faqat bir guruh o‘quvchilar foydalanishi uchun mo‘ljallanmaganligi);

o‘quvchi yoki o‘qituvchilarning hayoti va sog‘lig‘iga (xavfsizligiga) salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi (turli atraksionlar va boshqalar);

sanitar normalarga zid bo‘lmasligi yoki tabiatga va ekologiyaga ziyon keltirmasligi (ichimlik suvini isrof etmasligi);

o‘quvchilardan juda ko‘p vaqtini samarasiz o‘tkazishiga olib kelmasligi, ularning ta’lim olish jarayoniga **salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi** (*masalan Playstation yoki boshqa o‘yin avtomatlarini xarid qilish va boshqalar*).

23. Loyihalarni saralash bosqichida Ishchi komissiya loyihani qabul qilish yoki rad etish yuzasidan qaror qabul qiladi.

Ishchi komissiyaning qarori asosida tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo‘limlari tegishli loyihalarni rad etadi yoki keyingi bosqichga o‘tkazadi.

24. Rad etilgan loyihalarning rad etish sabablari asoslantirilishi majburiy bo‘lib, Portalda batafsil qayd etiladi. Ishchi komissiya tomonidan loyihalarni **asossiz ravishda rad etilishiga** yo‘l qo‘yilmaydi.

Loyiha quyidagi sabablarga ko‘ra rad etilishi mumkin:

loyihani amalga oshirish uchun yer maydonlari talab etilganda biroq maktab hududida bo‘sh yer maydoni mavjud bo‘lmaganida;

loyiha ushbu Nizomning 22-bandida keltirilgan mezonlarga mos bo‘lmaganida;

loyihaning boshqa mактабда amalga oshirilishi nazarda tutilganida;

loyihani amalga oshirish qiymati Jamg‘armadagi mavjud mablag‘dan ortiqni tashkil etganda.

Loyiha ushbu bandda keltirilgan sabablardan tashqari boshqa sabablarga ko‘ra rad etilishi mumkin emas.

25. Loyihalarni saralash bosqichi yakunlangandan so‘ng loyihalarga ovoz berish bosqichi o‘tkaziladi. Ovoz berish bosqichi Portal orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish bosqichida o‘quvchilar faqat o‘zi ta’lim olayotgan maktabdagи bitta loyiha uchun ovoz berish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘zlarining telefon, kompyuter, planshet qurilmalari yoki informatika xonasidagi kompyuter texnikasi orqali o‘zlariga tegishli “kalit so‘z” dan foydalangan holda o‘zлari tanlagen loyihaga ovoz berishlari mumkin.

26. Loyiha g‘olib deb topilishi uchun kamida **10** ta ovoz to‘plashi lozim.

27. Ovoz berish bosqichi yakunlariga ko‘ra:

har bir mакtab bo‘yicha loyihalar **to‘plangan ovoz soniga** qarab yuqoridan pastga saralanadi;

eng ko‘p ovoz to‘plagan bir yoki bir nechta loyiha Jamg‘armadagi mavjud mablag‘ doirasida Portal tomonidan **avtomatik tarzda** g‘olib deb topiladi. Bunda, to‘plagan ovoz soni teng loyihalardan ovoz soni bo‘yicha birinchi bo‘lib yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan loyiha avtomatik tarzda tanlab olinadi.

28. Barcha maktablar bo‘yicha g‘olib loyihalar **bir vaqtning o‘zida** Portal orqali e’lon qilinadi.

29. G‘oliblar aniqlangandan so‘ng Jamg‘armada shakllangan qoldiq mablag‘lar g‘olib deb topilgan loyihalarning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi munosabati bilan **qo‘s Shimcha talab etiladigan farqni qoplashga** yoki keyingi yil o‘tkaziladigan “Mening maktabim” loyihasi jarayonlariga yo‘naltiriladi.

G‘olib loyihalarning qiymatiga aniqlik kiritilib, qo‘s Shimcha mablag‘ga talab yuzaga kelganda Jamg‘arma mablag‘lari doirasida tuman (shahar) maktabgacha va mакtab ta’limi bo‘limining tegishli buyrug‘i asosida mablag‘lar qayta taqsimlanishi mumkin.

4-bob. G‘olib loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish

30. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan g‘olib loyihalarni moliyalashtirish tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

31. G‘olib loyihalar e’lon qilingan kundan boshlab **uch ish kunida** mazkur loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining buyrug‘i qabul qilinishi lozim.

32. G‘olib loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining buyrug‘i qabul qilinganidan so‘ng **markazlashtirilgan moliya buxgalteriya xizmatlari o‘n besh ish kunida** “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta’mnotchi korxonalarini aniqlash, qurilish-ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha loyihachi korxonalarini aniqlash choralarini ko‘radi.

33. Xarid qilingan (o‘rnatilgan) tovar-moddiy qiymatliklar belgilangan tartibda tovar va xizmatlar yetkazib berilgan kundan boshlab **uch ish kunida** tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining markazlashgan buxgalteriyasi tomonidan **balansga kirim qilinadi** hamda buxgalteriya hisobotida aks ettiriladi.

34. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklarni **saqlab turish** xarajatlarini moliyalashtirish choralarini ko‘radi.

35. Xarid qilingan (o‘rnatilgan) jihozlar yoki ta’mirlangan obyektlar samarali foydalanish va saqlanishi bo‘yicha javobgarlik **tegishli maktabning xo‘jalik bo‘yicha mas’ul xodimi** zimmasiga yuklatiladi.

5-bob. Hisobdorlik va ochiqlikni ta’minlash

36. Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari g‘olib deb topilgan loyihalar ro‘yxatini rasmiy veb-sayt hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish uchun tegishli tuman (shahar) hokimliklariga taqdim etadi.

Tuman (shahar) hokimliklari o‘n ish kunida rasmiy veb-saytlari hamda ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlaydi.

37. G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlari o‘quvchilar uchun ochiqligini va ular tomonidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishini ta’minlash maqsadida Portalda “loyihalarni **amalga oshirish xronologiyasi**” bo‘limi tashkil etiladi.

38. Loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

loyiha uchun ajratilgan mablag‘ miqdori;

tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta’mnotchi korxonalarini aniqlash uchun o‘tkazilgan tanlovlari;

rasmiylashtirilgan shartnomalar hamda amalga oshirilgan to‘lovlar.

39. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari har yili yanvar oyida o‘tgan yilda o‘tkazilgan “Mening maktabim” loyihasi

moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga axborot beradilar.

40. Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo‘limlari har yili 10 fevralga qadar ajratilgan mablag‘larning sarflanishi yuzasidan tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtiradi.

41. Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Ochiq budjet” axborot portalida maktab o‘quvchilarining budget jarayoniga **jalb etilishi** hamda “Mening maktabim” loyihasi **samaradorligi va natijadorligi** yuzasidan maktablar **reytingini yuritadi**.

6-bob. Jamoatchilik nazoratining o‘rnatalishi va javobgarlik

42. Portalda g‘olib deb topilgan loyihalar ijrosining barcha bosqichlarini o‘quvchilar va ota-onalar tomonidan kuzatish hamda bajarilgan ishlarni real-vaqt ko‘rinishida baholab borish imkoniyati yaratiladi.

43. Jamoatchilik nazorati doirasida loyihalar ijrosi jarayonida kamchiliklar kuzatilganda o‘quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan shikoyat tarzida Portal orqali “Favqulodda **xabar**” qoldirilishi mumkin.

44. Loyihalar amalga oshirilgandan so‘ng loyiha mualliflari va ularning ota-onalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar Portalda “Jamoatchilik nazorati” bo‘limi orqali quyidagicha baholanishi mumkin:

agar loyiha o‘z vaqtida va sifatli bajarilsa – “yashil”;

loyiha muddatidan kechiktirilayotgan yoki sifati qoniqarli holatda bo‘lsa – “sariq”;

loyiha hali boshlanmagan yoki sifati qoniqarsiz bo‘lsa – “qizil”.

“Qizil” toifaga kiritilgan loyihalar bo‘yicha tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan **mavjud kamchiliklarni bartaraf etish** choralar ko‘riladi.

45. Jamg‘arma mablag‘larining ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligi hamda mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi rahbari hamda bosh hisobchisi shaxsan javobgar hisoblanadi.

46. Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalaniishi ustidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining **Ichki audit xizmatlari** tomonidan doimiy nazorat amalga oshiriladi.

47. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

48. Loyihalarni shakllantirish va tadbirlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq yuzaga kelgan nizolar vakolatli organlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

“Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish
tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga
1-ilova

“MENING MAKTABIM” LOYIHASINI O‘TKAZISH SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari	<p>1. Har bir maktab uchun ochilgan “Mening maktabim jamg‘armasi”ga xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan mablag‘larni yo‘naltiradi.</p>	Jarayon boshlanishidan kamida bir oy avval
2-bosqich	Vakolatli organlar	<p>maktablarda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan loyihalar ro‘yxatidan tashkil topgan loyihalar namunalarini shakllantiradi va “Ochiq byudjet” portaliga kiritadi</p> <p>Jarayonni o‘tkazish muddatlari, mablag‘lar miqdori hamda maktablar uchun loyihalar namunalarini keng jamoatchilikga e’lon qiladi.</p>	Jarayon boshlanishidan kamida bir oy avval
3-bosqich	Sinf rahbarlar O‘quvchilar	<p>Maktablarda sinf soatlarida o‘quvchilarga loyiha kiritish bo‘yicha “master klass” dasrlar o‘tib beradi.</p> <p>O‘quvchilar sinf rahbari ko‘magida o‘z loyihalarini portalga kiritadi.</p>	Oktabr-noyabr oylarida
4-bosqich	Ishchi komissiya	Mustaqil ravishda shakllantirilgan loyihalarning mezonlarga muvofiqligi bo‘yicha o‘rganib chiqadi hamda loyihalarni rad etadi yoki qabul qiladi.	Loyiha kiritish bosqichi yakunlangan sanadan e’tiboran uch kun davomida
5-bosqich	O‘quvchilar	O‘quvchilar o‘rtasida ovoz berish jarayoni o‘tkaziladi. Bunda, o‘quvchilar o‘zlariga tegishli bo‘lgan kalit so‘zlaridan foydalanadi.	Saralash bosqichi yakunlangan sanadan boshlab uch kun davomida
6-bosqich	Portal tomonidan tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	<p>1. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra, har bir hududda eng ko‘p ovoz to‘plagan loyihalar avtomatik tarzda g‘olib deb topiladi</p> <p>2. G‘olib loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining buyrug‘i rasmiylashtiriladi.</p>	<p>Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra</p> <p>Ovoz berish jarayoni yakunlangan sanadan e’tiboran uch kun muddatda</p>

7-bosqich	Markazlash-tirilgan moliya-bugalteriya xizmatlari	tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta'minotchi korxonalarini aniqlash, qurilish-ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar bo'yicha loyihachi va pudratchi korxonalarini aniqlash choralarini ko'radi.	Moliyalashtirish bo'yicha buyruq tasdiqlangandan so'ng o'n besh ish kunida
8-bosqich	Markazlash-tirilgan moliya-bugalteriya xizmatlari	Xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklarni belgilangan tartibda balansga kirim qiladi hamda buxgalteriya hisobotida aks ettiradi.	tovar va xizmatlar yetkazib berilgan kundan boshlab uch kun muddatda

“Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish
tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga
2-ilova

**Loyihalarni saralab olish bo‘yicha ishchi komissiyaning
NAMUNAVIY TARKIBI**

T/r	F.I.O	Ish joyi va lavozimi
1.	Lavozimiga ko‘ra	Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i <i>ishchi komissiya rahbari</i>
2.	Lavozimiga ko‘ra	Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘ribbosari, <i>ishchi komissiya rahbari</i> <i>o‘ribbosari</i>
3.	A’zolar:	
4.	Lavozimiga ko‘ra	Maktab direktori (tegishliligi bo‘yicha)
5.	Lavozimiga ko‘ra	Maktabning informatika o‘qituvchisi
6.	Lavozimiga ko‘ra	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (kamida uch nafar)
7.	Lavozimiga ko‘ra	Maktabning xo‘jalik ishlari bo‘yicha mas’ul hodimi
8.		Ota-onalar (kamida uch nafar)

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Kengashining
2024-yil 5-dekabrdagi
KQ-10-V-sonli Qaroriga
2-ilova

**2024/2025 o‘quv yilida umumta’lim maktablarida sinov tarzida
“Mening maktabim” loyihasi amalga oshiriladigan tuman (shahar)lar
ro‘yxati**

T/r	Hudud nomi	Tumanlar nomi
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Kegeyli tumani
2.	Andijon viloyati	Bo‘ston tumani
3.	Buxoro viloyati	Vobkent tumani
4.	Jizzax viloyati	Arnasoy tumani
5.	Qashqadaryo viloyati	Dehqonobod tumani
6.	Navoiy viloyati	Tomdi tumani
7.	Namangan viloyati	Mingbuloq tumani
8.	Samarqand viloyati	Qo‘shrabot tumani
9.	Surxondaryo viloyati	Bandixon tumani
10.	Sirdaryo viloyati	Sardoba tumani
11.	Toshkent viloyati	Bo‘ka tumani
12.	Farg‘ona viloyati	So‘x tumani
13.	Xorazm viloyati	Yangiariq tumani
14.	Toshkent shahar	Shayxontohur tumani